



Times Higher Education
Impact Rankings



WORLD
UNIVERSITY
RANKINGS
ASIA 2025



BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI

“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”

mavzusidagi xalqaro
ilmiy-amaliy konferensiya

MATERIALLARI

I

9-10-sentabr
2025-yil

Buxoro - 2025



 @buxdu_uz

 @buxdu1

 @buxdu1

 www.buxdu.uz

Tel.: (65) 221-29-14
Faks: (65) 221-27-07

E-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz
Manzil: Buxoro shahar, M. Iqbol ko'chasi, 11-uy

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**“JAHON SIVILIZATSIYASIDA BUXORONING O‘RNI: BOY
MEROS, BARQAROR RIVOJLANISH, YORQIN KELAJAK”**

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari

**“РОЛЬ БУХАРЫ В МИРОВОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ: БОГАТОЕ
НАСЛЕДИЕ, УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ, СВЕТЛОЕ
БУДУЩЕЕ”**

Международная научно-практическая конференция

**“BUKHARA'S PLACE IN WORLD CIVILIZATION: RICH
HERITAGE, SUSTAINABLE DEVELOPMENT, BRIGHT
FUTURE”**

International Scientific and Practical Conference

Buxoro shahri, 9-10-sentabr, 2025-yil

Ilmiy-amaliy anjuman jahon sivilizatsiyasida Buxoroning tarixiy-madaniy va ilmiy-ma'rifiy merosini chuqur tadqiq etish, zamonaviy oliy ta'limda innovatsion yondashuvlar, fundamental va amaliy tadqiqotlar hamda xalqaro akademik hamkorlikni rivojlantirish orqali Buxoroning boy merosi bilan kelajak taraqqiyotini uyg'unlashtirishni ilmiy muhokama maydoniga aylantirishni maqsadida o'tkaziladi.

Ushbu to'plam keng ilmiy jamoatchilik, Buxoro va Buxoro davlat universitetining tarixi hamda turli soha ilmiy yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlar bilan qiziquvchilar, izlanuvchilar, magistrantlar va talaba-yoshlarga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

O.X.Xamidov, Buxoro davlat universiteti rektori,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Tahrir hay'ati va a'zolari :

K.A.Samiyev	– Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, f-m.f.d., professor
D.Sh.Yavmutov	– Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor
O'U. Rashidov	– Moliya - iqtisod ishlari bo'yicha prorektor
A.T.Jurayev	– Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, i.f.n, dotsent
R.G'. Jumayev	– O'quv ishlari bo'yicha prorektor, s.f.f.d., professor
O.S.Qahhorov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig'i, i.f.d, professor
G.T. Zaripov	– Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, t.f.n., professor
N.I. Gaybullayeva	– BuxDU Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, f.f.d., professor
N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent
A.A. Amonov	– Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, s.f.f.d., dotsent
Z.S. Nurov	– Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i, i.f.f.d. dotsent
B.I. Adizov	– Rektor ijro apparati boshlig'i, i.f.f.d., dotsent
M.Z. Husenov	– Axborot texnologiyalari markazi direktori, p.f.f.d., dotsent
D.Z. Rajabov	– O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.d., professor,
A.H. Hamrayev	– BuxDU tuzilmasidagi Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi direktori
O.O. Jalolov	– Matbuot kotibi

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

N.Z. Sayfullayeva	– Tahririy-nashriyot bo'limi boshlig'i, p.f.f.d., dotsent
M.Sh. Shirinova	– Tahririy-nashriyot bo'limi muharriri, f.f.f.d., dotsent BuxDU tayanch doktorant (PhD) va doktorantlar (DSc) – (filologiya vo'nalishlari)

Mazkur to'plam Buxoro davlat universiteti Ilmiy kengashining 2025-yil, 30-avgust 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya qilingan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallarida yoritilgan tarixiy jarayonlar, ma'lumotlar, chiqarilgan xulosalar, manba va adabiyotlar uchun mualliflarning o'zlari mas'ul va javobgardirlar.

Table 1. Main Directions of Development in Bukhara.

Направление	Историческое значение	Современные тенденции	Перспективы будущего
Наука и образование	Центр исламской науки (Ибн Сино, Марғинойий)	Университеты, цифровизация образования	Международные исследовательские кластеры
Архитектура и культурное наследие	Мавзолей Саманидов, Минарет Калян	Реставрация, список ЮНЕСКО	Виртуальные музеи, 3D-реконструкции
Экономика и торговля	Узловой центр Великого шёлкового пути	Туризм, гостиницы, ремёсла	Экологический и культурный туризм
Духовность и культура	Центр богословия и поэзии	Фестивали, этнографические туры	Глобальная интеграция духовного наследия
Инновации и технологии	—	Цифровизация туризма и архивов	Устойчивое развитие через цифровую экономику

Conclusion

Bukhara is a unique example of a city that, while preserving its rich historical and cultural heritage, is actively moving towards an innovative future. The harmonious combination of the past and the present creates the preconditions for the sustainable development of the region. The preservation of cultural traditions, the development of science and education, the introduction of digital technologies, and the support of tourism will allow Bukhara to take its rightful place in the global cultural and scientific space.

References

1. ЮНЕСКО. Всемирное наследие. – <https://whc.unesco.org>
2. Наршахи М. *История Бухары*. – Ташкент: Фан, 1991.
3. Арипов Б. Современные подходы к устойчивому развитию Бухарской области // Вестник Бухарского университета. – 2020. – №4. – С. 45–52.
4. Йулдашов Л., Буриев С. Научные основы сохранения культурного наследия и экологии региона // Наука и инновации. – 2021. – №2. – С. 67–75.

XIX–XX ASRLARDA BUXORO SHAHRI AHOLISI TARKIBIDA TURKIY TILLI GURUHLARNING SHAKLLANISHI VA ETNOGRAFIK XUSUSIYATLARI: O.A.SUXAREVA TADQIQOTLARI ASOSIDA

To'raeva Guli Bahriddinovna

*Buxoro davlat universiteti
Arxeologiya va Buxoro tarixi
kafedrası o'qituvchisi
turayevaguli8@gmail.com*

Annotatsiya. Maqola XIX–XX asrlarda Buxoro shahrida yashagan o'zbek urug'larining tarixiy-etnografik tavsifi va ularning ijtimoiy, siyosiy hamda madaniy hayotdagi o'rnini tadqiq etishga bag'ishlangan. Tahlilning ilmiy asosini O.A. Suxarevaning fundamental tadqiqotlari tashkil etadi. Olimaning ilmiy faoliyatida arxiv hujjatlari, dala etnografik kuzatuvlari, statistik materiallar va rus hamda yevropalik diplomatlar va sayohatchilarning yozma manbalari uyg'unlashtirilgan bo'lib, ular orqali Buxoro o'zbeklarining etnik tarixi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Buxoro, o'zbek urug'lari, etnik tarix, tarixiy-etnografik tadqiqot, ijtimoiy-madaniy hayot, XIX–XX asrlar, O.A. Suxareva.

Kirish. Markaziy Osiyo xalqlarining etnik tarixi va ijtimoiy-madaniy hayotini o'rganishda Buxoro shahri va uning vohasi alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki Buxoro nafaqat islom olamining yirik diniy va siyosiy markazlaridan biri, balki turli etnik guruhlar, qabila va urug'larning tarixiy shakllanish jarayonida o'ziga xos chorraha sifatida faoliyat yuritgan. XIX–XX asrlarda Buxoro aholisi tarkibida o'zbek

urug'lari asosiy etnik qatlamni tashkil etgan bo'lib, ular ko'p qirrali tarixiy-etnografik jarayonlarda faol qatnashgan.

Buxorodagi turkiy tilli aholi etnik tarixini o'rganishda etnografiya maktabining yirik vakili **Olga Aleksandrovna Suxareva (1896–1983)** alohida o'rin tutadi. U 1940–1960-yillar davomida Buxoro shahri va uning guzarlarini, mahalliy aholi tarkibini, ijtimoiy-madaniy hayotini, ayniqsa o'zbek urug'larining tarixi va etnografiyasini keng miqyosda tadqiq etgan. Uning ilmiy merosi bugungi kunda Buxoro o'zbeklarining urug'-qabila tizimi, etnik tarkibi, xo'jalik-madaniy hayoti va an'anaviy turmush tarzini chuqur anglashda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

O.A.Suxarevaning tadqiqotlari o'zbek urug'lari genealogiyasi, guzarlar bo'yicha taqsimoti, ijtimoiy hayotdagi o'rni bilan bir qatorda, ularning boshqa etnik guruhlar (tojiklar, arablar, yahudiylar, hindlar va boshqalar) bilan aloqadorligini ham yoritib bergani bilan ahamiyatlidir. Shu bois mazkur mavzuning qayta ilmiy tahlili bugungi kunda etnologiya, va tarix fani uchun dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asrning birinchi yarmidan boshlab Buxoro shahri aholisi va uning etnik tarkibiga oid qimmatli ma'lumotlar rus va yevropalik elchilar, sayyohlar hamda tadqiqotchilar asarlarida uchraydi. Jumladan, A. F. Negri va E. K. Meyendorff, E. A. Eversman, Budrin (1820), P. I. Demezov (1833-34), Ya. V. Vitkevich (1836), N. Xanikov va A. Leman (1841), A. Byorns (1831-1832), A. Vamberi (1863-64), G. I. Spasskiy, I. Poslavskiy, N. F. Sityakovskiy, P. P. P. Shubinskiy (1892) singari elchi-sayyohlarning asarlarida Buxoro aholisi etnografiyasi va etnik tarixiga doir ma'lumotlar berilgan.

1820 yili Buxoroga jo'natilgan A. F. Negri boshchiligidagi diplomatik missiya qatnashchilaridan E. A. Eversman, X. P. Yakovlev, Budrin va polkovnik E. K. Meyendorfflarning kitob va xotiralari tarixiy etnografik ma'lumotlarga nihoyatda boy.

E. K. Meyendorffning Orenburg-Buxoro diplomatik missiyasi faoliyati davomida to'plagan ma'lumotlari uning "*Путешествие из Оренбурга в Бухару*" (СПб., 1826) asarida yoritilgan. Mazkur manbada Buxoro amirligining geografik o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat tuzilishi, aholisi va uning mashg'uloti, qishloq xo'jaligi, sug'orish tizimi, hunarmandchiligi, ichki va tashqi savdo haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan [2,34]. Shuni ta'kidlash kerakki, missiya tarkibidagi Eversman va Yakovlevning qaydlari ham Meyendorffning asariga asos bo'lgan.

Shuningdek, fors tilini yaxshi bilgan ingliz sayyohi **A. Byorns**ning "*Travels into Bokhara*" (London, 1834; ruscha tarjimasi: "*Путешествие в Бухару*") asarida ham Buxoro aholisi, ularning shahar hududidagi joylashuvi haqida kuzatishlar uchraydi. Aleksandr Byorns 1831-1832 yillarda Buxoroda turib, muhim siyosiy, iqtisodiy, harbiy va etnografik materiallarni to'playdi. Uning sayohatnomasi o'zbeklarning turmush tarzi, ijtimoiy hayoti va madaniy xususiyatlari haqida qimmatli etnografik ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

1840–1850-yillar davomida Qozog'iston va O'rta Osiyo xalqlarining etnografiyasini ilmiy asosda o'rganishda aka-uka Nikolay va Yakov Xanikovlarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Xususan, N. V. Xanikovning "*Описание Бухарского ханства*" (Sankt-Peterburg, 1843) asari Buxoro amirligi hududining geografiyasi, aholisi, xo'jaligi va siyosiy tuzilishini birinchi bor tizimli tarzda bayon etgan manbalardan biridir. Unda o'zbek qabilalari, tojiklar, turkmanlar va boshqa etnik guruhlarining soni, yashash hududlari hamda ijtimoiy-siyosiy mavqei haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Yakov Xanikov esa o'zining sharq tillari va tarixiga oid tadqiqotlari orqali Markaziy Osiyo xalqlarining madaniy va lingvistik xususiyatlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan. Aka-uka Xanikovlar tomonidan yaratilgan ushbu ilmiy asarlar XIX asrning birinchi yarmida Yevropa va Rossiyada Buxoro va butun O'rta Osiyo xalqlarining etnografik qiyofasini tasavvur qilishda asosiy manba sifatida xizmat qilgan.

XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi etnik tarkibi haqida qimmatli ma'lumot bergan rus sharqshunosi N. V. Xanikov o'zining mashhur "*Описание Бухарского ханства*" (Sankt-Peterburg, 1843) asarida amirlikdagi o'zbek urug'-qabilalarini mufassal tarzda tasnif qilgan. Uning qayd etishicha, Buxoro o'zbeklari ichki tuzilishi jihatidan ko'p sonli urug' va qabilalardan iborat bo'lib, ularning genealogiyasi qadimiy "*Nasabnomai o'zbekiy*" manbasi bilan hamohanglikda bayon etilgan [Хаников, 1843, s. 65–78].

N. V. Xanikov ma'lumotlariga ko'ra, amirlik hududida 97 ta urug' va qabila mavjud bo'lgan. Ulardan yiriklari quyidagilardir: mang'it (to'q mang'it, oq mang'it, qora mang'it bo'linmalari bilan), ming, yuz, qirq, qavchin, jaloyir, saroy, uyg'ur, qang'li, nayman, qipchoq, qo'ng'iroq, qarluqlar, qatag'on, barlos, sulduz, duvlat, qorabayli, qaraqalpoq, turkman, chuvulchi, shirin, baxrin, do'rman, mug'ul, tatar, arab, arlot, ilonli, qo'chqorli, shiq, chimboy va boshqa kichik urug'lar. Shuningdek, ko'plab yirik urug'larning ichki bo'linmalari ham mavjud bo'lib, ular alohida etnik guruh sifatida tilga olinadi.

N. V. Xanikovning yozishicha, mazkur urug' va qabilalarning har biri Buxoro amirligi hududida ma'lum joylarda yashagan. Masalan, mang'itlar asosan Zarafshon vodiysi va Buxoro atrofida, qipchoqlar cho'l hududlarida, nayman, qo'ng'iroq, qarluqlar Samarqand hamda Jizzax tomonida, jaloyir, barlos va

sulduslar qadimdan voha markaziy qishloqlarida, turkmanlar va qaraqalpoqlar esa janubiy chegaralarda hamda yarim ko'chmanchi chorvachilik hududlarida istiqomat qilgan.

Bu qabilalar nafaqat genealogik nasab tizimiga ko'ra ajratilgan, balki ularning iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy jihatdan farqlari ham mavjud bo'lgan. Mang'it va minglar davlat boshqaruvi hamda harbiy xizmatda faol bo'lgan bo'lsa, qipchoq va naymanlar ko'proq chorvachilik bilan shug'ullangan.

N. V. Xanikovning ushbu tasnifi o'z davri uchun nihoyatda muhim bo'lib, u orqali XIX asr Buxoro amirligida yashagan o'zbek qabilalarining xilma-xilligi va tarixiy ildizlari haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

O'rta Osiyo tarixini tadqiq etishda G'arbiy Yevropa sayyohlari va sharqshunoslarining asarlari alohida o'rin tutadi. XIX asrning ikkinchi yarmida yashagan vengriyalik sharqshunos va sayyoh **Arminiy Vamberi (1832–1913)** ana shunday tadqiqotchilardan biridir. U O'rta Osiyoga 1863 yilda maxfiy ravishda, darvesh libosida sayohat qilib kirib keladi. Uning bu safaridan so'ng yozilgan **“Travels in Central Asia”** (London, 1864) asari nafaqat Yevropada, balki Rossiya ham katta qiziqish uyg'otdi.

Mazkur asar ikki asosiy qismdan iborat: birinchi qismda Vamberining shaxsiy sayohat xotiralari, yo'l davomida uchrashgan qabila va xalqlar hayoti, turmush tarzi, urf-odatlarini tasvirlangan bo'lsa, ikkinchi qism tarixiy va siyosiy masalalarga bag'ishlangan. Ayniqsa, **23-bob** O'rta Osiyoning ichki va tashqi siyosiy aloqalarini yoritadi, **24-bob** esa Rossiya va Angliyaning O'rta Osiyodagi raqobati, ularning bu mintaqaga nisbatan tutgan siyosati haqida Vamberining tahliliy xulosalarini o'z ichiga oladi.

Asar e'lon qilinganidan keyin qisqa muddat ichida rus tiliga tarjima qilinib, **1865 yilda Sankt-Peterburgda chop etildi.**

Biroq **“Travels in Central Asia”** G'arbiy Yevropadagi ayrim sharqshunoslar va mutaxassislar tomonidan **“haddan tashqari umumiy va yuzaki”** asar sifatida baholandi. Ayniqsa, faktlarning tarixiy asoslanishi va dalillarning qisqaligi tanqid qilindi. Vamberi bu tanqidlarni hisobga olib, **1868 yilda “Sketches of Central Asia”** (London) asarini nashr etdi [15]. Ushbu kitob 17 bobdan iborat bo'lib, unda O'rta Osiyo xalqlari tarixi, ijtimoiy hayoti, urf-odatlarini, iqtisodiy faoliyati va qabila tuzilmalari haqida ancha batafsil ilmiy kuzatuvlar berilgan.

Arminiy Vamberi o'zbek urug'lari haqida gapirib, birinchi bo'lib **“o'zbek”** so'zining kelib chiqishi to'g'risida mulohaza yuritadi. A. Vamberi o'zbek qabilalarining ro'yxatini tuzadi va ularning kiyim-kechaklari, taomlari, o'yinlari va musiqa asboblari, urf-odatlarini va diniy marosimlari to'g'risida hikoya qiladi.

XIX asrning 80-yillarida Buxoroda bo'lgan I. Poslavskiy Buxoro aholisining ko'pchiligini o'zbeklar tashkil etganligini ta'kidlaydi. O'zbek va tojik aholisi joylashuvi haqida ma'lumotlar rus tadqiqotchilaridan **I. Poslavskiy** qaydlarida uchraydi.

D. N. Logofetning **“Бухарское ханство под русским протекторатом”** [1911] ilmiy kuzatuvlariga asoslangan asari [4,28] Rossiya imperiyasi davrida Buxoro amirligi etnografiyasi va ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi haqida ma'lumot beruvchi muhim harbiy-statistik va kuzatuv xarakteridagi hujjatlar sirasiga kiradi. Kitobning 6-bobida Buxoro amirligidagi etnik birliklar—o'zbeklar, tojiklar, qirg'izlar, turkman, arab,

g'aleha, xazarlar, afg'onlar, yahudiylar, hindlar, ruslar va lo'lilar haqida etnik, siyosiy va iqtisodiy tavsiflar keltirilgan.

Shunday qilib, XVI–XIX asrlarga oid yevropalik va rus sayyohlarning kuzatuvlari Buxoro aholisining etnik va lingvistik tarkibini bilvosita tarzda tasvirlash imkonini beradi. Garchi bu manbalarda demografik tafsilotlar cheklangan bo'lsa-da, ularda til va madaniyat bilan bog'liq muhim kuzatuvlar qayd etilgan bo'lib, ular Buxoroning tarixiy-etnik rivojlanish jarayonini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O. A. Suxareva Buxoro shahri aholisi etnik va lingvistik xususiyatini tahlil qilishda yevropalik va rus sayyohlari bergan ma'lumotlardan foydalanadi. Olga Aleksandrovna Suxarevaning 1966 yilda Moskvada nashr etilgan **“Бухара XIX — начала XX вв. :позднефеодальный город и его население”** nomli monografiyasi Buxoro shahri tarixiy-topografik rivoji, aholisi, shuningdek uning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini har tomonlama chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Monografiya to'rt asosiy bo'limdan tashkil topgan bo'lib, har bir bo'limda muayyan mavzular ilmiy asosda tahlil qilingan:

1. Birinchi bo'limda Buxoro shahri hududi, uning tarixiy topografiyasi, geografik joylashuvi va tabiati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, shaharning bozorlar, karvonsaroylar, tarixiy joylar, qabristonlar, aholi guzarlari hamda qurilish rejasi haqida ilmiy izohlar keltirilgan.

2. Ikkinchi bo'limda Buxoro guzarlaridagi oilalarning tarkibiy tuzilishi hamda shahar aholisining soni va demografik xususiyatlari puxta o'rganilgan.

3. Uchinchi bo'lim tarixiy adabiyotlar, xususan, tojik tilidagi manbalar asosida Buxoro aholisi va uning etnik tarkibi — turkiy tilli xalqlar, arablar, forslar, yahudiylar kabi asosiy etnik guruhlar tarixini chuqur tahlil qilgan.

4. To'rtinchi bo'limda Buxoro shahri aholisining ijtimoiy turmush tarzi, kundalik mashg'ulotlari, hunarmandchilik va savdo-sotiq faoliyati, shuningdek, yirik yer egalari, harbiylar va ziyolilar kabi ijtimoiy qatlamlarning hayot tarziga oid ilmiy mulohazalar o'rin olgan.

Yuqorida tahlil qilingan tarixiy manba va adabiyotlar mavzu mohiyatini to'liq ochib berishga xizmat qiladi.

Materiallar va metodlar. Ushbu ilmiy maqolaning metodologik asosini tarixiylik, xolislik va qiyosiy-tahliliy yondashuv tamoyillari tashkil etadi. Tadqiqot davomida **tarixiy-etnografik metod, genealogik metod, lingvistik-etnografik tahlil, xo'jalik-madaniy tipologiya** bilan bir qatorda **madaniy antropologiya** metodlari ham qo'llanildi. Shu orqali nafaqat o'zbek urug'larining genealogik va hududiy tarqalishi, balki ularning kundalik hayoti, ijtimoiy-madaniy o'ziga xosliklari ham izchil tadqiq qilindi.

Tarixiy-etnografik metod yordamida XIX–XX asr boshlaridagi Buxoro o'zbek urug'larining shakllanishi va ularning shahardagi etnosotsial roli aniqlashtirildi. Olga Aleksandrovna Suxarevaning kuzatuvlari asosida mahalla (guzar)larning etnik tarkibi, o'zaro munosabatlari va ijtimoiy infratuzilmadagi o'rni qayta ko'rib chiqildi.

Lingvistik-etnografik tahlil. Til masalasi o'zbeklarning etnik birligini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida o'rganildi. O.A.Suxareva qayd etganidek, turli urug' vakillari o'zaro umumiy turkiy lahjada muloqot qilgan bo'lsa-da, ayrim fonetik va leksik xususiyatlar saqlanib qolgan. Shu bois tadqiqotda **dialektologik materiallardan** foydalanildi.

Xo'jalik-madaniy tipologiya yordamida Buxoro o'zbeklarining turmush tarzi, mehnat faoliyati va madaniy-maishiy an'analari tizimlashtirildi. Dehqonchilik va hunarmandchilik asosidagi yashash tarzi, guzar ichida ijtimoiy ishlab chiqarishning tashkil topishi, oilaviy munosabatlar va marosim an'analari etnografik manbalar asosida tahlil qilindi. Bu uslub orqali o'zbek urug'larining ijtimoiy tizimda tutgan mavqei va boshqa millat vakillari bilan madaniy aloqalari yoritildi.

Ushbu tadqiqot metodologiyasi tarixiy-etnografik an'analarni zamonaviy ilmiy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirishga asoslangan bo'lib, Buxoro o'zbek urug'larining etnik tarixini, madaniy hayotini va ijtimoiy tizimini mukammal o'rganishga imkon yaratadi.

O'zbeklarning etnik ildizlari masalasi turli davrlarda sharqshunoslik, etnografiya va tarixiy antropologiya tadqiqotlarida turlicha yoritilgan. XIX–XX asr boshlarida shakllangan Rossiya sharqshunoslik maktabi ularning kelib chiqishini asosan "turon" (turkiy-mo'g'ul) konsepsiyasi doirasida izohlagan bo'lib, bu yondashuv o'zbeklarning genealogiyasini mashhur Oltin O'rda hukmdori O'zbekxon (1312–1341) nomi bilan bevosita bog'laydi. So'nggi davr tadqiqotlari esa o'zbek etnonimining yanada qadimiy turkiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatmoqda. Shu bois, etnogenezni o'rganishda faqat mo'g'ul omiliga tayanish biryozlama metodologik yondashuv hisoblanadi.

O.A. Suxareva o'zbeklarni Buxoro amirligining harbiy va ma'muriy elitasini tashkil etgan qatlam sifatida keltiradi. Ayniqsa, Mang'it urug'iga mansub bo'lganlarning siyosiy hukmronligi qayd etiladi. Bu esa o'zbeklarning XVIII asr oxiri XIX asr davomida davomida xonlikdagi siyosiy boshqaruvda ustuvor mavqega egaligini ko'rsatadi. Bunda ular boshqa etnik guruhlardan — tojiklar, arablar yoki forslar — farqli o'laroq, yuqori ijtimoiy pog'onada turgan.

Manbalarda o'zbeklarning "eng unumdor va sug'oriladigan yerlarni" egallaganligi alohida qayd etiladi. Bu yerlar Buxoro amirligining strategik ahamiyatga ega hududlari — Buxoro, Karmana, Shahrisabz, Denov, G'ijduvon va boshqa hududlar bo'lib, ularning qo'llarida dehqonchilik va iqtisodiy ustunlik to'plangan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib, Buxoro amirligi hududida yashovchi o'zbeklar yarim-ko'chmanchi turmush tarzini saqlab qolgan yirik etnik guruh sifatida ajralib turardi. Ayniqsa, Qarshi, Karmana, Sherobod, Denov, Hisor, Kitob, Shahrisabz, Qabodiyon, Baljuvon, Ko'lob bekliklarida o'zbeklar boshqa etnik guruhlar bilan solishtirganda son jihatdan ustunlik qilganlar.

O'zbeklar ko'p hollarda dehqonchilik bilan shug'ullangan bo'lsalar-da, ularning asosiy xo'jalik sohasi chorvachilik, ayniqsa qoramolchilik va qo'ychilik edi. Bunday holat ularning yerni yollanma mehnat asosida ishlatishi bilan ham tasdiqlanadi. Ulkan suruvlar egalari bo'lgan o'zbeklar yil fasllariga qarab yaylovdan-yaylovga ko'chib yurishgan, qishda Amudaryo bo'ylarida, yozda esa Hisor tizmasining janubiy yonbag'irlarida bo'lganlar.

Etnoportret sifatida o'zbeklar "tipik savdogar-ko'chmanchilar" deb tavsiflanadi: ular erksevar, mehmondo'st, soddadil va siyosiy jihatdan uncha faollik ko'rsatmagan xalq hisoblangan. Ular umumiy o'zbek turkiy lahjasida so'zlashganlar, bu til xonlikning deyarli barcha hududlarida bir xilda qo'llanilgan. Bu o'zbeklarning til birligi va etnik identifikatsiyasi mustahkam bo'lganini ko'rsatadi.

O'zbeklar yarim-ko'chmanchi hayot tarzi bilan yashagan: ular qish mavsumida doimiy uylarida, yozda esa ko'chma yurtida — o'tovlarda yashaganlar. Ayni paytda ayrim o'zbeklar doimiy uy-joy va bog'larga ega bo'lishgan, bu esa turmush tarzining barqarorlashishiga dalolat beradi [4,155].

Urug'chilik va qabila tizimi o'zbeklar orasida muhim ijtimoiy institut sifatida mavjud bo'lgan. Har bir oila va shaxs o'z nasl-nasabini, qaysi urug' va avlodga mansubligini yaxshi bilgan, bu esa ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va ijtimoiy tuzilmani barqarorlashtirishda muhim rol o'ynagan.

Tahlil va natijalar.XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida yashagan o'zbek aholisi murakkab va ko'p qatlamli etnik tarkibga ega bo'lib, ularning asosiy qismini turli urug' va qabilaviy birliklar tashkil etgan. Tarixiy manbalar, xususan, rus harbiy-statistik materiallari, etnografik kuzatuvlar va mahalliy yozma manbalarda qayd etilishicha, Buxoro vohasida ham yirik, ham kichik o'zbek urug' va qabila guruhlar mavjud bo'lgan. Ular ko'pincha o'zining tarixiy kelib chiqishi, migratsion yo'llari, iqtisodiy faoliyati, ijtimoiy mavqei va madaniy xususiyatlariga ko'ra farqlangan.

Buxoro o'zbeklari orasida Mang'it, Qo'ng'iro't, O'zbek, Qirg'iz (yoki Qozoq), Qatag'on, Loqay, Sudonchi, Qarluq, Uta-Bug'ut, Marqa-Kichik-Yuz, Do'rmen, Sariq-Qalmoq, Neymanlar, Qipchoq, Adig' kabi yirik etnik birliklar uchragan. Bularning ayrimlari (masalan, Mang'it, Qo'ng'iro't, Qipchoq) tarixan keng hududlarga tarqalgan bo'lib, amirlikdagi siyosiy elita va harbiy tabaqada ham muhim rol o'ynagan.

Shuningdek, tarixiy manbalarda Mang'it, To'rqu't, Barut, Taz, Temes, Burqa, Saramatay, Sariqchi, Shemesh, Tutuq, Mutal, Bayo'g'li, Anbarberdi, Xalda-Xo'jag'li, Malay, Xitoy, Sariq-Malo, Apash, Tanayli, Balashchi, Davlatchi, Shig'av, Saho, Yaq-binich, Chalx-Xapaka, Abdal, Boyin-Qasimir, Balikchi, Qarabash, Armanchi, Ganjachi, Qadr-Bug'ut, Qalmadash, Salpit, Ajinjon, Qunduzchi, Jinandi, Yant-Talaqt, Qonrat, G'azalik, Kalta-Toy, Polvon, Chal, Beshtentek, Mirishkor, Basovut, Bay-Geldy, Qalqaban, Fashg'in, Qosg'ona, Xo'ja-batcha, Momay, Qushchi, Chirik-bacha, Vakila-bacha, Xozar-Mamish, Sariq-Sangli, Foziliy, Qorovul, Mashatlar, Kanavatchi, Jau-Keldi, Zor-Buruch, Ozt-Temir, Ata-Berdy, Khoja-Ramazan, Yerg-Tebert, Katagant, Maralt, Shorat, Khant-Batcha, Barat, Tulkichi, Togalang, Eshpa, Shikht, Bay-Kashpa, Sary-Bapy, Subak, Sulduz, Pokirak, Zarmuxa, Yang-Gaur, Bayat, Ming kabi kichikroq urug' va avlodlar ham qayd etilgan.

Bu ro'yxat Buxoro amirligi etnik tarkibining **murakkabligi va o'zbeklar orasidagi urug'-qabila tizimi** qanday rivojlanganligini ko'rsatadi. Keltirilgan 102 ta qabila va urug' nomi asosan turkiy etnoslarga mansub bo'lib, ularning ba'zilar mo'g'ul, arab yoki mahalliy sug'diy asosga ega.

№	Urug' nomi	Izoh
1.	Mang'it	Buxoro amirligi hukmron sulolasi. Jo'ji ulusidan, mo'g'ul ildizli
2.	Qo'ng'iro't	Xorazmda va Buxoroda keng tarqalgan, mo'g'ul-yovmut asosli
3.	Qipchoq	Dashti Qipchoqdan kelib chiqqan, qadimiy turkiy qabila.
4.	Qatag'an	Mo'g'ul davrida harbiy kuch sifatida tanilgan.
5.	Nayman	Markaziy Osiyo bo'ylab tarqalgan ko'chmanchi qabila.
6.	Durmen	Turkiy urug', O'zbekiston va Turkmaniston hududida uchraydi

Buxoro shahri aholisi tarkibida turkiy tilli guruhlar — asosan o'zbeklar hamda kam sonli qozoq oilalar mavjud bo'lgan. O. A. Suxareva ma'lumotlariga ko'ra, o'z ona tilini saqlab qolgan o'zbeklar shaharning 34 ta mahallasida istiqomat qilishi qayd etilgan. Biroq, ko'pchilik hollarda ular alohida xizmatchilar yoki amaldorlar oilalari sifatida bu hududlarga vaqtincha joylashtirilgan, ularning yashash joylari xizmat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan. Bunday oilalar odatda davlatga qarashli uy-joylarda istiqomat qilgan, bu esa ularning lavozimga tayinlanishi munosabati bilan berilgan va ishdan bo'shatilganda qaytarib olingan uylar edi.

Shu sababli, ayrim mahallalardagi turkiy tilli oilalarni ularning **barqaror etnik tarkibini** belgilovchi asosiy demografik omil sifatida ko'rib bo'lmaydi. Ahamiyatlisi shundaki, Buxoroda o'z ona tili sifatida o'zbek tilidan foydalanuvchi, doimiy yashovchi aholi mavjud bo'lgan.

Shahar hududida joylashgan eng yirik va zich o'zbek tilli aholi guruhi shimoli-sharqiy qismda, Samarqand darvozasi yaqinida joylashgan Buyrobofon mahallasida istiqomat qilgan. Mahalla 120 ta xonadondan iborat bo'lib, ularning faqat 50 tasi, bir joyda to'plangan holda, sovunfurushlik bilan shug'ullangan tojiktili oilalarga tegishli edi. Qolgan barcha xonadonlar o'zbek oilalariga tegishli bo'lib, ular bugungi kungacha o'zbek tilini saqlab qolganligi kuzatiladi [6,144].

O. A. Suxareva Buxoro shahrining g'arbiy qismini o'rganish jarayonida bu hududda turkiyzabon aholi, xususan o'zbek guruhlarining sezilarli darajada joylashganligini aniqlaydi. Bu yerda, qalmoq (oyrat) unsurlari bilan bir qatorda, o'zbek qabilalariga mansub guruhlar, jumladan kenagaslar istiqomat qilganliklari qayd etiladi. Kenagaslar asosan Do'rmon, Oq-Masjid va Qatag'on kabi mahallalarda yashaganlar. Ularning

kelib chiqishi haqida tarixiy-etnografik adabiyotlarda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, bu guruhlarining aksari Shahrisabzdan Buxoroga ko'chib kelgan o'zbeklar hisoblangan [6,145].

Kenagaslarning Buxoroga ko'chib kelishi jarayoni, XIX asrning birinchi yarmiga — Buxoro amiri Nasrullohxon (1826–1860) hukmronlik yillariga to'g'ri keladi. Bu davrda Buxoro amirligi Shahrisabz bilan murakkab siyosiy munosabatda bo'lib, amir o'z hokimiyatini ushbu viloyatda mustahkamlash yo'lida qat'iy choralar ko'rgan. Bu siyosiy harakatlar haqida o'z davrining guvohi bo'lgan tarixchi Mirzo Shams Buxoriy shunday ma'lumot beradi: "Nasrulloxon Shahrisabzni bo'ysundirgach, "uning egalari oilasi, qarindoshlari va lavozimli shaxslari bilan birga" Buxoroga ko'chirib keltirilgan, ularga uy va ikki mevali bog' sovg'a qilgan". Ushbu manbadan ko'rinib turibdiki, bu faqat siyosiy muhojirlik emas, balki maqsadli tarzda aholini ko'chirish siyosati bo'lgan.

Mazkur siyosat natijasida nafaqat Shahrisabzdan, balki boshqa o'zbek urug' lari istiqomat qilgan viloyatlardan Buxoro amirligi uchun harbiy xizmat ko'rsatish maqsadida turli qabilalardan jangovar yigitlar, harbiy salohiyatga ega kishilar yuborilgan.

O'zbek urug'laridan bo'lgan harbiy xizmatchilar shaharning shimoliy-g'arbida joylashgan Qulmuhammad-hoji, Zindafil Ahmadiy Jome, Oqmachit, Bahodirbiy, Qalmoq, Machiti Kunjak, Ahmad dorg'o, Devori Paxsa, Taqiya, Muddao mahallalarining barchasida istiqomat qilganlar. Sorvono mahallasida yarim aholi turkiyzabon bo'lgan, ularning asosiy kasblari amirga tegishli yuklarni tashishga mo'ljallangan tuyalarga qarash bo'lgan. Bu mahallada amirning ishonchli kishilari va xizmatchilari yashaganlar.

Buxoro shahrida istiqomat qilgan o'zbek guruhlari til nuqtayi nazaridan shartli ravishda ikki asosiy toifaga bo'linadi. Birinchi guruh vakillari hayot faoliyatining asosiy qismini tojik tilida olib borgan bo'lib, o'zbek tilini ikkinchi darajadagi muloqot vositasi sifatida bilganlar. Ikkinchi guruh esa kundalik hayotda o'zbek tilidan faol foydalangan, biroq, Buxoro shahrining ko'p millatli muhitiga xos tarzda, ular orasida tojik tilini ham bilganlar oz bo'lmagan.

Bir necha turkiy urug'lar shaharning janubi-g'arbiy qismida joylashganlar. Bu yerda Qirg'izoyim mahallasida harbiylar ko'pchilikni tashkil etgani uchun, xalq orasida Sipohiyar deb nomlanadigan katta mahalla bo'lgan. Bu mahallada mang'itlar, qirg-yuzlar kabi turkiy urug'lar yashagan. G'oziyon mahallasidan g'arbdagi mahallalarda kam sonli o'zbek sipohiy oilalari ham istiqomat qilgan. Masalan, Kosagaron, Shayx-Jalol, Mirakon, Havuzi-Nav mahallalarida o'zbek oilalari ham ko'pchilikni tashkil etgan.

Turkiy Burqut urug'idan bo'lgan o'zbeklar shaharning eng sharqiy nuqtasida joylashgan Qora Kamol mahallasida istiqomat qilganlar. O'tmishda burqutlar aslzoda sipohiyar bo'lgan. Keyinroq ular kambag'allashib, tojiklarning etikdo'zlik kasbini egallay boshlaganlar. Lekin til xususiyatini yo'qotmaganlar va o'z nomlariga "bek" so'zini qo'shib aytganlar. O. A. Suxareva Buxoro shahriga, asosan, o'zbek urug'lari XVI asrdan ko'chib kelgan deb ta'kidlaydi.

Buxoro amirligidagi o'rta darajadagi etnik guruhlar – urug'larning aralash yashashi holati Amudaryo deltasida va O'rta Zarafshon vohasining g'arbiy qismida ko'proq ko'zga tashlangan. Bu yerlarda o'zbek urug'lari yaxlit hududlarni egallab, yoyilib yashamasdan, balki katta qishloqlarda yaxlit urug' bo'lib joylashganlar. Bu hududlarda Saroy, Qo'ng'iro't, Mang'it, Qipchoq, Xitoy, Nukus, Nayman, Qiyot, Ass, Do'rman, Uyshun, Jaloyir, Qang'li, Qatag'on, Kerait, Chandir, Urganji va h. k. urug' nomlaridan hosil bo'lgan toponimlar ko'proq tarqalgan [1,144-184].

Amirlikdagi aholining yarmidan ko'prog'ini o'zbeklar tashkil etib, ular asosan Zarafshon vodiysida, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasida istiqomat qilganlar. Jami aholining 30% ini tashkil etgan tojiklar qisman Buxoro va Samarqand shaharlarida, asosan amirlikning tog'li hududi bo'lgan Sharqiy Buxoroda istiqomat qilganlar. Amudaryoning o'ng qirg'og'ida, Chorjo'y va Karkida yashovchi turkmanlar esa mamlakat aholisining 10% ini tashkil etgan. Bundan tashqari, Karmana va Nurotada o'zbek qabilalari bilan bir qatorda qozoqlar, Buxoro va Samarqand shahrida ko'plab o'zbek va tojiklar bilan birga yahudiylar, arablar, lo'lilar va afg'onlar ham yashaganlar [6,17-21].

Xulosa. Buxoro shahrida yashagan o'zbek urug'larining tarixiy-etnografik tavsifi O.A. Suxarevaning tadqiqotlarida keng qamrovli va tizimli tarzda yoritilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek urug'lari Buxoro shahar va amirlik hududida siyosiy-iqtisodiy hayot, shaharsozlik tizimi va madaniy an'analarda muhim rol o'ynagan. Ularning turmush tarzi, kasb-hunar faoliyati, urf-odat va diniy marosimlari urug'chilik tizimi hamda mahalla-guzar jamoalari orqali barqaror saqlanib kelgan.

Umuman olganda, Buxoro o'zbek urug'larini tarixiy-etnografik nuqtai nazardan o'rganish milliy etnologiya va tarix fanlari uchun dolzarb bo'lib, shahar jamoalari tarixini tiklash, milliy madaniy merosni asrash va zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni chuqurroq tushunishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Атовуллаев С. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошларида Бухоро амирлиги аҳолисининг этник таркиби // ҚарДУ хабарлари: илмий-назарий, услубий журнал. – Қарши : Қарши давлат университети, 2022. – Б. 11–14.
2. Жабборов И. М. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент : Фан, 1994. – 320 б.
3. Кюгельген фон А. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в провидениях их историков XVIII–XIX вв. – Алма-Ата : Дайк-пресс, 2004. – 515 с.
4. Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. – Санкт-Петербург : Тип. М. М. Стасюлевича, 1911. – 356 с.
5. Мейендорф К. Е. Путешествие из Оренбурга в Бухару. – Москва : Наука, 1975. – 256 с.
6. Сухарева О. А. Бухара XIX – начала XX в. (позднефеодальный город и его население). – Москва : Наука, 1966. – 328 с.
7. Сухарева О. А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). – Москва : Наука, 1976. – 365 с.
8. Тураева Г. Б. Sukhareva's research on population statistics in Bukhara (on the example of Persians-Iranians) // *American Journal of Social and Humanitarian Research*. – 2022. – Т. 3, № 6. – С. 381–384.
9. Тўраева Г.Б. XIX аср охири - XX аср бошларида Ўрта Осиё халқлари этнографияси тарихшунослиги – рус шарқшунослиги мисолида / "Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№1 Б-132-135. (70), Хоразм Маъмун академияси, 2021 й. – 314 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>
10. То'rayeva G.B. XIX asrda Buxoro amirligi aholisi etnografiyasining rus elchi va sayyohlari asarlarida o'rganilishi /SURXONDARYODA ILM VA FAN /Ilmiy-innovatsion jurnal №1/2020
11. Гули Бахритдиновна Тўраева, Феруза Холматовна Ўтаева, Нилуфар Ахматовна Жумаева О.А. СУХАРЕВА ТАДҚИҚОТЛАРИДА БУХОРО ТАРИХИ ВА ЭТНОГРАФИЯСИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ 2021/Scientificprogress Ўзбекистон
12. То'rayeva G. B. O.A.Suxareva Tarixchi-etnograf olimi. Вестник Института сокровищница наука.-2019 Тожикистон. 443-447бетлар
13. Халфин Н. А., Рассадина Е. Ф. Н. В. Ханыков — востоковед и дипломат. – Москва : Наука (ГРВЛ), 1977. – 280 с.
14. Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства. – СПб.: Типография Императорской Академии наук, 1843. – 290 с.
15. Вамбери А. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. – Тошкент : Info Capital Group, 2019. – 368 б.

MADANIY MEROS VA ZAMONAVIY TA'LIM INTEGRATSIYASI: BUXORO MISOLIDA

Malikova Mashhura Baxtiyorovna

BuxDU Tarix va yuridik fakulteti tyutori

Ibragimova Munisa Doniyorovna

BuxDU 11-ITNI-24 guruh talabasi

Annotatsiya: mazkur tezisda Buxoro shahrining boy madaniy merosi va uni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalalari yoritiladi. XXI asr ta'limida nafaqat nazariy bilim, balki tarixiy-madaniy qadriyatlarni chuqur o'rganish ham dolzarb hisoblanadi. Buxoro misolida madaniy meros obidalari, qadimiy qo'lyozmalar, adabiy va ilmiy maktablarning boy an'analari ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda innovatsion pedagogik texnologiyalar, jumladan, raqamli platformalar, virtual ekskursiyalar, gamifikatsiya va interaktiv o'qitish usullaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, talabalarda milliy identitetni mustahkamlash, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirishda madaniy merosdan foydalanishning ahamiyati asoslanadi. Maqolada Buxoro davlat universiteti ta'lim amaliyotida qo'llanilgan ilg'or tajribalar ham keltiriladi..

Kalit so'zlar: madaniy meros, zamonaviy ta'lim, pedagogik texnologiyalar, integratsiya, innovatsion yondashuv, milliy identitet, raqamli ta'lim, virtual ekskursiya, gamifikatsiya.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug'iga muvofiq hamda Buxoro davlat universitetining 95 yillik yubileyini nishonlash doirasida

Ф.Х. Бобожонова	Бухоро амирлигидаги олий таълим тарихига бир назар	347
К.Ганиев.	О роли медресе Бухары в духовно-культурной жизни общества (XVI–первая половина XIX веков)	348
И.Наимов	Бухоро амирлиги мадраса таълимида қозилар тайёрлаш амалиёти	353
М.Гуламова	Бухорода нақшбандия тариқати давомчиси	357
З.А. Мурадова	Из истории изучения музыкального наследия Бухары в XX веке	359
Ш.Бобожонов	Бухоро давлат университетининг шаклланиш ва ривожланиш тарихи	363
И.Х.Шоев	Особенности правовой системы Бухарского эмирата	366
З.И. Туксанова	Медресе Мирзы Улугбека в Бухаре	369
И.С.Бўриев	Сомонийлар сулоласи чоғида бухоролик астроном ва математиклар	371
Z.B. Yakubov	Buxoro shashmaqomining mo'g'ulcha sho'balarga doir qarashlar (A.Boboxonov nota to'plami misolida)	375
M. M. Safayev	Buxoroda gilamlar savdosi va kolleksionerlik faoliyati	378
M.F.Norova	Ma'naviy meros va kamolot: Sayfiddin Boxarziy qarashlari misolida	382
B.B. G'aybulloyev	Buxoro teatrining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari	386
O. X. Allayarov	Zarafshon daryosi suv taqsimoti (Turkistonda yer va davlat mulki boshqarmasi davrida)	390
M.K. Beshimov	Munzimning matbuotchilik faoliyati	394
N.F. Davronova	Qadimiy O'rta Osiyo me'morchiligi va zamonaviy zilzilaga chidamli qurilish tamoyillari uzviyligi	396
S.Z. Jabborova	Jahon sivilizatsiyasida Buxoroning o'rni	399
Z.Y. Jo'rayeva	Jahon sivilizatsiyasida Buxoroning o'rni: boy meros, barqaror rivojlanish, yorqin kelajak	104
Ҳ.Б. Ҳайдарова	Ислом оламида фикҳ илмини ривожига Абу Ҳафс Кабир Бухорийнинг ўрни	403
M.P. Khonjonova	Bukhara: from a glorious past to a great future	406
G.B. To'raeva	XIX–XX asrlarda Buxoro shahri aholisi tarkibida turkiy tilli guruhlarining shakllanishi va etnografik xususiyatlari: O.A.Suxareva tadqiqotlari asosida	408
M. B. Malikova, M. D. Ibragimova	Madaniy meros va zamonaviy ta'lim integratsiyasi: Buxoro misolida	414
T.B.Abdimo'minov	Sherobod bekligining boshqaruv tizimi va ma'muriy- hududiy bo'linishi	416
Y.A. Olimova	Buxoro: sharaflı o'tmishdan buyuk istiqbol sari	422
Z.A.Ortiqova	The crossroads of traditions: understanding Bukhara's diversity	424
B.M.Mutallibjonov	Buxoro hunarmandchiligining zamonaviy rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muammolar va ularning yechimlari	426
D.Z.Isrofilova	Buxoroning Usmoniylar imperiyasi bilan elchilik munosabatlari	431
3-SHO'BA. FIZIKA, MATEMATIKA, QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING DOLZARB MUAMMOLARI		
D. R. Djurayev, Z. R. Ramazonova	Vismut asosli kuprat o'ta o'tkazgichlar va ularning kritik parametrlari	434
I.Akramov, D. Qurbonova	Enhancing the spectral deferred correction method using ai-based initial guesses	436
D. R. Djurayev., A. A. Ahadov	Kazimir energiyasi yondashuvi asosida turli kislorod kontentli HgBa ₂ CuO ₄ (4+δ) (Hg-1201) o'ta o'tkazgich kritik haroratini hisoblash modeli	440
N. N. Boltayev, M. M. Mansurov	Veleton TM misolida energiya tejovchi qo'shimchalarning chaqiqto'shmastikali asfaltbeton xususiyatlariga ta'siri	442
D. R. Djurayev, A. A. Ahadov	Optimal legirlangan Hg-1201 o'ta o'tkazgich zaryad tashuvchilar effektiv massasining bir o'qli bosim ostida o'zgarishi	445
M. I. Elboyeva	CaMoO ₄ va PbMoO ₄ kristallarining strukturaviy, spektroskopik va akustooptik xossalari	447
M. O'.O'ktamov, E. O'. Fayzullayeva	Qayta tiklanadigan energiya manbalarining optimallashtirilgan taqsimoti uchun matematik modellashtirish	449
D. H. Fayziyeva	Talabalar media kompetentligini rivojlantirishda sun'iy intellektdan foydalanish metodikasi	453